



AMAZONKA MALIKALARI VA ULARNING YUNON MUALLIFLARI
ASARLARIDAGI TA'RIFI

Mansur Muminov Jo'ra o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Amazonka malikalari aslida mavjudmi yoki yunon mifologiyasidagi afsonalarni degan savolga maqolada javob berishga harakat qilamiz. Maqolada malikalar va ular bilan bog'liq afsonalarga atroflicha to'xtalib o'tamiz. Yunon asarlarida keltirilgan voqealar bilan bir qatorda hozirgi davrdagi ilmiy ishlarda keltirilgan farazlar haqida va har bir malika haqida alohida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz. Maqolada amazonkalarining o'zi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Abstract: We will try to answer the question of whether the Amazon princesses actually exist or are they myths from Greek mythology. In the article, we will focus on princesses and legends related to them. Along with results in Greek works, we will try to dwell on personal hypotheses and each queen in contemporary scientific works. The article also contains information about Amazons themselves.

Kalit so'zlar: Girkaniya, Fason daryosi, Troya, Aleksandr Makedonskiy, Diodor, qadimgi malikalar, Axilles.

Keywords: Hyrcania, Phason River, Troy, Alexander the Great, Diodorus, ancient queens, Achilles.

Grek va Rim tarixiy adabiyotidan amazonkalar haqida qiziq hikoyalarni uchramiz. Ular amazonkalarining skiflar avlodidan bo'lganligini ta'kidlashadi, lekin skiflar amazon ayolni "zorpata" deb atashgan[2]. Bunga teskari farazlar ham juda ko'p. Kursiy Rufning ta'kidlashicha, esa Girkaniya bilan chegaradosh Fermodonta daryosi bo'ylarida amazonka qabilasi yashagan. Yustinning "Pompey Trog epitomi" asarida shunday fikrlarni o'qiymiz. "Skiflarning shavkatli qahramonliklari to'g'risidagi hikoyamizni skif xalqining kelib chiqish tarixidan boshlash kerak. Ularning ayollari jasoratda erkaklaridan qolishmasdi, haqiqatdan ham, agar ularning o'zlari Parfiya va Baqtriya podsholiklari tuzgan bo'lsalar, ayollari esa amazonka podsholigiga asos solgandi"[1].

Diodor ham "Tarixiy kutubxona" asarida, haqiqatan ham, amazonkalarining bo'lganligini tasdiqlaydi. Bulardan ko'rish mumkinki, ular bevosita skiflar deya e'tirof etilmoqda. Diodor amazonkalar haqida to'xtalib shunday yozadi: "Keyin Aleksandr Girkaniyaga qaytadi va uning huzuriga Amazonka malikasi (shohi) Falestra tashrif buyuradi. Bu malika Fasom va Fermodonto daryolari o'rtasidagi yerlarga hukmdor edi. Juda jasur, kuchli va go'zal edi". Diodor o'z fikrida davom etib, amazonkalar shohining Aleksandr huzuriga kelganligi haqida yana shunday yozadi. Aleksandr undan nima uchun kelganligini so'raydi. Shunda Falestra Aleksandrdan farzand ko'rish niyati borligini aytadi, chunki buyuk kishilardan buyuk farzandlar tug'iladi, deb hisoblaydi. Aleksandr Falestraning bu maslahatiga rozi bo'ladi va u bilan 13 kun birga bo'lib katta sovg'alar berib, o'z vataniga kuzatib qo'yadi[1]. Lekin bu ma'lumotlarni ancha ishonarsiz deyish mumkin. Chunki Aleksandr bilan zamondosh tarixchilar asarlarida bu kabi ma'lumotlarni uchratmaymiz.



Dastlab, davlat tuzilgandan keyin ularni Marpeziya va Lampeto ismli ikkita podshosi bo'lgan. Ular jangchilarini ikki qismga bo'lib, navbat bilan o'z chegaralarini qo'riqlay boshlaydilar. Yevropaning katta qismini bo'ysundirib, bir qancha Osiyo mamlakatlarini ham bosib oladilar. U yerda Efes va boshqa ko'plab shaharlarga asos solib, katta o'lja bilan qo'shinning bir qismini jo'natadilar. Marpeziya o'rniga uning qizi Sinona taxtga o'tiradi.

Esxil o'zining "Zanjirband Prometey" tragediyasida Amazonkalar haqida qisqacha to'xtalib shunday deydi:

"Tokni erkak zotini xush ko'rmovchi qavm
Yashaydigan qo'shinlarga duch kelguningcha
Bu qo'shinni tashkil etar otliq ayollar,
Maskanlari - Fermadonta, Femiskirada" [1].

Demak Esxil bilan Kvint Kursiy Ruf va boshqa yunon tarixchilari asarlaridagi amazonkalar yashagan hududlar o'zaro o'xshash yoki ular yashagan hududni aniq deb qarashimiz mumkin. Lekin ularni Azov va Qora dengiz bo'yida yashagan degan farazlar ham juda ko'p. Biz bundan xulosa qiladigan bo'lsak, ularni ma'lum hududda emas balki, ulkan hududga cho'zilgan yerlarga egalik qilishgan.

Esxil amazonkalarining "otliq ayollar" ekanligini ta'kidlaydi. Amazonkalarining viloyati Fermadonta, Femiskirada dega o'lka ekanligi ham aniq ko'rsatib o'tiladi. Aleksandr bilan amazonka malikasi o'rtasidagi uchrashuv haqida yana shunday ma'lumotlar beriladi. Aleksandrni ko'rish va u bilan uchrashish niyatida Falestris shohga chopar yuboradi. Shohdan ruxsat olgandan so'ng, 300 ta go'zal ayol bilan uning huzuriga keladi. Amazonkalar kiyimi badanlarini to'liq yopmas edi. Buni o'sha davrda yaratilgan haykallar va rasmlarda ham ko'rishimiz mumkin. Chap ko'kragi ochiq bo'lib, kiyimi tizzasidan pastga tushmasdi. Ular qizlarini emizish uchun faqat o'ng ko'kragini qoldirib, chap ko'krak bezini kesib tashlardi yana boshqa manbada esa kuydirib tashlardi degan ma'lumot beriladi. Go'yoki bu usul ular uchun yoy va nayza otishda qulaylik tug'dirardi. Falestris shon-shuhratga unchalik loyiq bo'lmagan shohning gavdasiga qo'rqmasdan qarab turardi. Hech narsa kerak emasmi degan shohning savoliga Falestris shunday javob qaytaradi: "Shohdan farzand ko'rishni, agar qiz bo'lsa o'zimda qoldirib, o'g'il bo'lsa shohga merosxo'r qilaman" bu ka'bi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, bu sahna ya'ni Aleksandr bilan Falestra o'rtasidagi uchrashuv to'qima hikoya xolos.

Klassik yunon mifologiyasida Hippolyta yoki Hippolyte Amazonlar malikasi Ares va Otreraning qizi hamda Antiopa va Melanippening singlisi haqida ham ma'lumotlar ko'p uchraydi. U otasi Aresning zosterini kiyib olganligi va yengilmasligi aytiladi. (bu yunoncha so'z bo'lib, "jang kamari" degan ma'noni anglatadi. Ba'zi an'anaviy inglizcha tarjimalarda ayollarga xos bo'lgan "belbog"). Asarlar va haykallarda Gippolitaning figuralari ko'zga ko'p tashlanadi.

Antiona va Oritiya haqida esa yunon asarlarida nisbatan ko'proq ko'ramiz, hatto Gerakl va boshqa yunon afsonalarida ham asosiy qahramonlar qatoriga ularni qo'shishadi. Gerakl haqida bitilgan afsonada shunday ma'lumotlar beriladi: Gerakl katta kema jihozlabdi, sodiq do'stlari - Iolayni, Afina shahzodasi Teseyni va boshqalarni chaqirib olibdi. Ular butun dengizchilar uchun jasur argonavtlar ochgan yo'ldan suzib ketibdilar. Uzoq suzibdilar, oxiri dovul quturib turgan Qora dengizdan o'tib, Fermadont



daryosiga chiqibdilar, oqimga qarab yuqoriga suzib borib, amazonkalar poytaxti Femiskira shahriga yetibdilar. Asarlardan amazonka harbiylarining kiyimlari borasida ham ma'lumotlar uchraydi. Darvozalar oldida qurollangan xotinlar turisharkan, ular charm qalpoq, kalta xitonlar, to'piqlarigacha tushadigan tor, uzun shim kiygan emishlar, yelkalariga oy shaklidagi qalqonlar osib, qo'llariga ikki yuzli bolta olgan emishlar. Soqchilar Gerakl bilan uning o'rtog'larini shaharga kiritmabdilar, shuning uchun ular daryo qirg'og'ida, shahar devori tagida joylashishga majbur bolibdilar. Ko'p o'tmay, qurollangan qizlar otryadi bilan chiroyli ot mingan malika Ippolita yetib kelibdi. Qizlar ichida malikaning jonajon o'rtog'i go'zal Antiopa ham bor ekan.[1]

Urushga sabab quyidagicha keltiriladi "Podshoh Evristey bir kuni Gerkulesdan amazonka podshohining qurolini olib kelishni buyuradi. Gerkules to'qqizta harbiy kemada oliy tabaqa grek o'spirinlari bilan amazonkalarga kutilmaganda hujum qiladi. Bu paytda amazonkalarga ikki opa-singil Antiona va Oritiya podshohlik qilishardi. Ammo ulardan biri Oritiya o'sha vaqtda o'z davlatidan ancha uzoqda urush olib borardi. Shu sababli Gerkules yengil g'alabaga erishadi". Ko'plab amazonkalar janglarda halok bo'ladi, ko'plari asirga olinadi. Bular ichida malikalari ham bor edi. Shuningdek, Antionaning ikki singlisi bor bo'lib, ularning biri Menalinni Gerkules, Ippolitani esa Tesey asira qilib oladilar. Keyinchalik Tesey o'z asirasiga uylanib, undan Ippolit ismli o'g'il ko'radi. Gerkules esa g'alabadan keyin Menalinnani onasiga qaytib beradi, evaziga esa podsho qurolini qo'lga kiritadi. Buyruqni bajargan Gerkules o'z podshosi Evristeyning huzuriga qaytadi.

Afsonalarda amazonka malikasing Axilles bilan jang sahnalari aks ettiriladi. Amazonkalar Troyaga urushga yordamga boradi va o'sha yerda Axilles va Penfesiliya to'qnash keladi. Penfesiliya boshchiligidagi amazonkalarining katta qo'shini Troyaga yetib keladi g'am-g'ussaga botib o'tirgan Troya shohi Priam amazonkalarining yordamga kelganini eshitib behad xursand bo'ladi. Malika Penfesiliya sharafiga katta ziyofat berib, o'z qizidek shod-u hurramlik bilan qarshi oladi. Erkaklardek shijoatga ega bo'lgan, kuch-qudrati to'lib toshgan malika yunonlarning barcha pahlavonlarini mahv etaman, kemalariga o't qo'yib hamma Troya dushmanlarini qirib tashlayman, deb shijoat ko'rsatadi. Axeyliklar amazonkalarining shiddatli jangiga dosh berolmaydi. Amazonkalar ot ustida yoy o'qini bexato otib, axeylarni qirib, tobora dengiz tomon surib borardi. Ne-ne jang ko'rgan yunon lashkarlari sarosimaga tushib qoladi. Raqiblarining bunchalik kuch-qudratni qayerdan olganliklariga hayron edilar. Shunda kutilmaganda yunon pahlavoni Axilles yordamga yetib keladi. Axilles sherday o'kirib jangga kiradi. Penfesiliya Axillesni mo'ljalga olib nayza otadi. Nayza pahlavonning qalqoniga tegib sinib ketadi. Amazonkalar malikasi pahlavonga qarata ikkinchi marta yoydan o'q otadi, ammo bu safar ham uni jarohatlay olmaydi. Shunda Axilles g'azabga to'lib bor kuchi bilan raqibiga tashlanib, uni yaralaydi. Malika yaralanganini sezib, qilichini yalang'ochlab, endi Axillesni o'ldirishga qaror qiladi. Axilles raqibining yaralanganidan foydalanib, vujudi kuchga to'lib, shunday nayza sanchadiki, natijada nayza otning bo'ynidan kirib, malikaga sanchiladi va Penfesiliya halok bo'ladi.[1] Keyin Axilles raqibining ayol ekanligini bilib juda afsuslangani va uni yaxshi ko'rib qolgani aytiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yunon va boshqa xalqlar muarrixlari tomonidan bitilgan asarlarda amazonkalar haqida ancha haqiqatdan yiroq bo'lgan,



afsonaviylashtirilga ma'lumotlar o'rin olgan. Bir tomondan har bir asotir yoki hikoya asosida ham haqiqatlar yotadi shu tarafdin yondashganda amazonka malikalari rostdan bo'lgan taqdirda yunon va rim tarixchilari asarlaridagi voqealar kabi emas sal soddaroq ko'rinish kasb etadi. Oldingi maqolamizda amazonkalar kimligi va ular tarixiga to'xtalib o'tgan edik. Bu safar esa malikalari haqida atroflicha ma'lumotlar berishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F. Boynazarov. "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent. 2008.
2. З.Аьлам. "Кадимги тарихчилар Урта Осиё хакида" Тошкент. 2008.
3. Vera Smirnova. "ellada qahramonlari" Toshkent. "Yosh gvardiya". 1976.
4. Wikipedia.